

**BOLANING IJTIMOIIY VA SHAXS SIFATIDA  
SHAKLLANISHIDA DIALOGIK VA MONOLOGIK NUTQNING  
AHAMIYATI**

*Raximboyeva Muazzamxon Ximmat qizi*

*Musurmonqulova Yaxshigul Ilhom qizi*

*Soatmurodova Durдона Sobirjon qizi*

*DTPIning pedagogika fakulteti Maktabgacha  
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada dialogik va monologik nutqning ahamiyati, bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligi, bolalarga dialogik nutqni o'rgatish usullari, dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar, turli yosh guruhlar tarbiyasida bolalarni dialogik va monologik nutqqa o'rgatish muammolari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** dialog, monolog, muloqot, ko'nikma, mashg'ulot, qobiliyat, mantiqiy fikrlash, ijtimoiy rivojlanish, ravon nutq*

### **Kirish**

Bolaning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida dialogik va monologik nutqning ahamiyati juda katta. Nutq bolaning fikrlashi, muloqot qilish qobiliyati va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun asosiy vositadir. Bu jarayon ikki asosiy shaklda amalga oshadi: dialogik va monologik nutq.

Dialogik nutq – bu ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasida o'zaro muloqot shaklida kechadigan nutqdir. Ushbu nutq turi bevosita suhbat davomida shakllanadi va qatnashchilarning fikr almashishi, savol-javoblar va turli xil fikrlar bildirish asosida amalga oshadi. Dialogik nutq bolaning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi va uni og'zaki muloqotning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Dialogik nutqni shakllantirish uchun bolalarga qulay va rag'batlantiruvchi muhit yaratish, ularni faol ravishda muloqotga jalb qilish va bu jarayonni qiziqarli o'yinlar, hikoyalar hamda turli mashg'ulotlar orqali tashkil

etish muhimdir. Shu tariqa bolalar muloqotga kirishishdan nafaqat zavq oladi, balki ularning til qobiliyatlari ham boyiydi. Dialogik nutq, shuningdek, badiiy asarlarda, pyesalarda va filmlarda personajlar o'rtasidagi suhbatlar orqali ham o'z aksini topadi.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik negizida nutqning yangi shakli -monolog tug'iladi va shakllanadi.

Monologik nutq – bu nutqning shunday turi bo'lib, unda bir kishi o'z fikr va his-tuyg'ularini bir tomonlama, boshqa odamlar bilan bevosita muloqotsiz ifodalaydi. Monologik nutq odatda biror ma'ruza, dars, konferensiya yoki badiiy asar qahramonining ichki nutqida ko'zga tashlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni rivojlantirish bolaning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun juda muhim. Bu yoshdagi bolalar o'z fikrlarini izchil va mazmunli tarzda ifodalashni o'rganishadi, bu esa kelgusida muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatining poydevorini yaratadi. Monologik nutq orqali bolalar mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. O'z fikrlarini ifodalash jarayonida ular fikrlarini izchil va mazmunli tuzishga o'rganadi. Bu esa keyinchalik o'quv faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Monologik nutq mashqlarida ishtirok etish orqali bolalar so'z boyligini kengaytiradi, yangi tushuncha va iboralarni o'zlashtiradi.

Bolalarni dialogik va monologik nutqqa o'rgatish tarbiya jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, bu o'quvchilarni muloqotga tayyorlash, fikrni mantiqiy va ravon ifoda etishga ko'nikma hosil qilish, shuningdek, o'z fikrini boshqalarga yetkazish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Turli yosh guruhlarida bu jarayon o'ziga xos qiyinchiliklar va yondashuvlarni talab qiladi. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirishdagi muammolarni hal qilishda doimiy mashq, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish, shuningdek, ota-ona va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi

turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish - dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofni bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, bolaning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida dialogik va monologik nutqning muhim o'rnini bor. Ikkala nutq shakli ham bola ongining rivojlanishida, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining shakllanishida va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, pedagoglar va ota-onalar bolalarda dialog va monolog madaniyatini rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Takomillashgan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. - T.: YUNISEF, 2022.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod" 2018 yil. Darslik
4. [https:// ilmiyanjumanlar.uz](https://ilmiyanjumanlar.uz)
5. [https:// daryo.uz](https://daryo.uz)